

“TASDIQLAYMAN”

**Din ishlari bo'yicha qo'mita
raisining birinchi o'rinbosari**

D.Maxsudov

26 -yanvar 2026-yil

**Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Jamoatchilik
kengashi yig'ilishining**

1-son B A Y O N I

26 -yanvar 2026-yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

**Din ishlari bo'yicha qo'mitasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
X.Ishmatbekov**

Qatnashdilar:

**Qo'mita huzuridagi jamoatchilik
kengashi a'zolari, (ro'yxat bo'yicha)**

KUN TARTIBI:

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yilgi Oliy
Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosida
fuqarolik jamiyati institutlari, xususan Jamoatchilik kengashlarining o'rni
va rolini kuchaytirish to'g'risida**

Kun tartibi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosida fuqarolik jamiyati institutlari, xususan Jamoatchilik kengashlarining o'rni va rolini kuchaytirish masalalari.
2. Qo'mita huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yil uchun faoliyat rejasini takomillashtirish.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan eshitildi:

**1-so'zga chiquvchi: Jamoatchilik kengashi raisi X.Ishmatbekov,
Prezidentimizning 2025-yilgi Murojaatnomasida davlat boshqaruvida ochiqlik,
hisobdorlik va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish ustuvor vazifa etib**

belgilanganini ta'kidladi. Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatini jamoatchilik nazorati asosida baholashda muhim bo'g'in ekanligi qayd etildi.

Shuningdek, Murojaatnomada ijtimoiy buyurtmalar tizimini rivojlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarurligi belgilangan bo'lib, bu jarayonda Jamoatchilik kengashi tashabbuskor bo'lishi lozimligi ta'kidlandi.

2-so'zga chiquvchi: Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari D.Maxsudov, Prezident tomonidan ilgari surilgan **"inson qadrini ulug'lash va manfaatlarini ta'minlash"** tamoyili fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining asosiy mezonini bo'lishi kerakligini bildirdi.

Jamoatchilik kengashi aholining muammolarini o'rganish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish orqali Qo'mita faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozimligi qayd etildi.

3-so'zga chiquvchi: Jamoatchilik kengashi a'zosi E.Masuleyivich, murojaatnomada **fuqarolik jamiyati institutlarini institutsional jihatdan mustahkamlash**, ularning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilanganiga e'tibor qaratdi.

Xususan, jamoatchilik kengashi tomonidan:

- Qo'mita faoliyati yuzasidan jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish;
- Davlat dasturlari ijrosi ustidan monitoring olib borish;
- Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish zarurligi bildirildi.

4-so'zga chiquvchi: Jamoatchilik kengashi a'zosi A.Isaxarov, raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlar siyosati Murojaatnomaning muhim yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi.

Jamoatchilik kengashi faoliyatida:

- Raqamli platformalar orqali jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirish;
- Kengash qarorlari va xulosalarini ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida e'lon qilib borish;
- Fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda tizimli yondashuvni yo'lga qo'yish taklif etildi.

5-so'zga chiquvchi: Jamoatchilik kengashi kotibi N.Saydullayev, murojaatnomada belgilangan **ijtimoiy adolat, korrupsiyaga qarshi kurash va**


jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalari Jamoatchilik kengashining asosiy faoliyat yo'nalishlariga aylanishi lozimligini ta'kidladi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining malakasini oshirish, ularning huquqiy bilimlarini mustahkamlash hamda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda loyihalar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Muhokama yakuni bo'yicha QAROR QILINDI:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2025-yilgi Murojaatnomasida belgilangan vazifalar Jamoatchilik kengashi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin.
2. Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha **2026-yilga mo'ljallangan aniq chora-tadbirlar rejasi** ishlab chiqilsin.
3. Qo'mita faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida muntazam jamoatchilik eshituvlari va muhokamalari tashkil etilsin.
4. Mazkur qarorlar ijrosi Jamoatchilik kengashi tomonidan doimiy nazoratga olinsin.

Jamoatchilik kengashi kotibi:



N.Saydullayev